

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI  
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MEHNAT MUXOFAZASI VA  
XAVFSIZLIK TEXNIKASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MEHNAT MUXOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me'yoriy asoslar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **MEHNAT MUXOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI**

1. Mehnatni muhofazasining nazariy asoslari;
2. Mehnatni muhofaza qilishning nazariy va huquqiy asoslari;
3. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi;
4. Xavfsizlik texnikasi asoslari;
5. Yong'in xavfsizligi;
6. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

<b>T/r</b>	<b>Mazmun sohalar</b>	<b>Konstruktlar</b>	<b>Testlar soni</b>
<b>1</b>	Mehnatni muhofazasining nazariy asoslari	Mehnat qonunchiligida huquqiy va tashkiliy masalalar Mehnatni muhofazasining nazariy va qonunchilik asoslari. Xavfsiz mehnat sharoitini yaratish tadbirlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8 ta
<b>2</b>	Mehnatni muhofaza qilishning nazariy va huquqiy asoslari	Texnika xavfsizligi muhandisining vazifalari. Yo'riqnomalar. Mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat va jamoa nazorati. Mehnat xavfsizligi qoidalari buzilganda javobgarlik turlarini farqlay olishi lozim	3 ta
<b>3</b>	Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi	Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi. Sanitariya talablari va mehnat sharoiti. Ishlab chiqarish sanitariyasi. Havo orqali ishchiga ta'sir etadigan zararlar, noqulay mikroiklim, changlar, gazlar, shovqinlar, infra va ultratovushlar, tebranma harakatlar, yoritilish darajasi, nurlanish ko'rsatkichlarini farqlay olishi lozim	6 ta
<b>4</b>	Xavfsizlik texnikasi asoslari	Ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi, uning maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Texnika xavfsizligini ta'minlashning asosiy bosqichlari. Ishlab chiqarishda yuzaga keladigan xavfliomillar, ularning guruhlanishi. Mashina va mexanizmlarning xavfli joylari (zonalari). Mashina, mexanizm, jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalarining texnik holatiga bo'lgan umumiy va maxsus xavfsizlik talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	7 ta
<b>5</b>	Yong'in xavfsizligi	Yong'inning oldini olish va o'chirishni tashkil qilish, evakuatsiya chora-tadbirlari. O't o'chirish vositalari. Yong'inga qarshi tadbirlar. O't o'chirish vositalarining turlari. Yong'inni o'chirish usullari. O'tni o'chirishda suv ta'minoti. Avtomatik o't o'chirish uskunalari. Yong'in darakchilari va aloqa vositalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	8 ta
<b>6</b>	Birinchi tibbiy	Nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi vositalar.	6 ta

yordam ko'rsatish	Paxta dokali niqob, respiratorlar, gazniqoblar va avtanom nafas olish apparatlari, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi. Teri muhofaza vositalari. Xavf omillariga ko'ra qo'llaniladigan himoya kiyimlar, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim
-------------------	---

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

#### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

#### VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

#### VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Tavsiya etilgan adabiyotlar ( Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi fani)

2. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. O'.R. Yo'ldoshev, O.D. Rahimov, R.T. Xo'jaqulov, O.T. Hasanova – Toshkent. Davr nashiryoti-2017.

3. Mehnat muhofazasi. Mutalib Sodiqov, Basriddin Yusupov. Toshkent-2008.

4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent-1996.

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.